MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mamatov Avaz Muxiddinovich – Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchi

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematikani bilishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish uchun ularning matematika fani bilan qiziqtirish ham muhim hisoblanadi.

Jamiyatning axborotlashuvi zamonaviy darslarda albatta kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni talab qiladi. Bu esa o‘z-o‘zidan o‘quvchilarning kompyuter savodxonligi va madaniyatini rivojlantirishga olib keladi.

O‘qituvchi mashg‘ulot uchun o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga muvofiq ravishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- o‘qituvchi kompyuteri va videoproektor yordamida ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan namoyish qiluvchi dasturlar;
- o‘quvchilarning bilim darajalarini aniqlash uchun trenajyorlar;
- masalalarni yechish bo‘yicha o‘quvchilar ko‘nikma va malakalarini oshirish uchun trenajyorlar;
- matematika tarixi hamda o‘rganilayotgan mavzu, yechilayotgan masalalar bo‘yicha axborot qidiruv yoki ma’lumotnoma dasturlari.

Kompyuterlardan foydalanish rejalashtirilgan mashg‘ulotlar odatiy mashg‘ulotlar kabi olib boriladi. Ularda kompyuterlardan dars mavzusiga oid xususiy masalalarni yechishda foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchi tomonidan joriy mavzuni chuqur o‘zlashtirilishiga, ijodiy mulohaza yuritishiga erishish mumkin.

Kompyuterli mashg‘ulotlarni boshlashdan avval o‘quvchilarni albatta texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish lozim. Undan keiyn o‘quvchilar kompyuterlar bilan ishlash uchun boshlang‘ich ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Mashg‘ulotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kompyuterlar bilan bitta mashg‘ulot mobaynida 15 minut, kun davomida esa 30-40 minutdan ortiq ishlamasliklarini nazorat qilish lozim. Shu munosabat bilan o‘quv jarayoni to‘laligicha axborotlashtirilmaydi, faqat uning alohida olingan elementlarini an’naviy usuldagi darslar tarkibiga kiritish tavsiya etiladi.

Bugungi kunda kompyuter ta’limi uchun bir qator amaliy dasturlar mavjud. Ulardan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mashg‘ulot samarasini orttirish uchun ehtiyojga ko‘ra turli maqsadlarda foydalanishlari mumkin. Namoyish etish uchun mo‘ljallangan dasturlardan biri foydalanuvchilar o‘rtasida keng tarqalgan *Microsoft PowerPoint* dasturi hisoblanadi. Uning yordamida multimediyali prezentatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash mumkin. Bunday prezentatsiyalar o‘quv materiallarini rang-barang, bo‘yoqlarga boy, dinamik tarzda ifodalashda o‘qituvchiga katta yordam bera oladi.

Yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilarning yomon o‘qiydigan o‘quvchilardan asosiy farqi ularning qobiliyatlarida emas, balki ularning faolligidadir. Kompyuter o‘quvchilarga xato qilishga imkon beradi va shu zahotiyoq bu xatolikni tuzatishga o‘quvchilarda ishtiyoqni paydo qiladi. Kompyuter xuddi o‘qituvchi singari

o‘quvchining xatti-harakatini baholay oladi. Ammo, uning xulosasi yakuniy va o‘zgarmas hisoblanmaydi. Demak, kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga imkon beruvchi vositalardan hisoblanadi.

Kompyuter o‘quv materiallarini ifodalash va o‘quvchilarga uzatish usullarini yetarlicha darajada kengaytirdi. Rang, grafika, tovush, video va boshqa bir qator effektlarni ta'lim jarayonida qo‘llash evaziga turli muhit va vaziyatlarni yuzaga keltirish mumkin bo‘lib qoldi.

O‘quvchilar ta'rif, teorema, isbot, qoida va formulalarni eslab qolishlariga to‘g‘ri keladi. Mantiqan bir-biriga bog‘langan matematik bilimlar zanjirini eslab qolishga o‘rgatib, o‘qituvchilar ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishiga yo‘l ochadilar. Bunda quyidagicha topshiriqlardan foydalanish mumkin:

- ikki xonali sonlarni eslab qoling;
- matematik terminlarni yodlang;
- so‘zlar zanjirini yodlang;
- xotiradagi ma'lumotlar bo‘yicha rasm chizing;
- rasmlarni eslab qoling va qayta chizing
- ko‘rish orqali diktant yozing;
- eshitish orqali diktantlar yozing.

Matematika darslarida bilish imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus masala va mashqlardan muntazam ravishda foydalanib, kichik yoshdagi o‘quvchilarning matematik dunyoqarashini shakllantiradi va rivojlantiradi, matematik madaniyatini shakllantiradi, matematik tayyorgarlik darajasini yuqoriga ko‘taradi, bolalarga ularni o‘rab turgan olamdagi eng sodda qonuniyatlarni anglab olishga va o‘zlariga bu olamda dadil yo‘l topishlariga, maktabda olgan matematik bilimlaridan kundalik hayotdagi turli masalalarda faol qo‘llashni o‘rganadilar.

O‘qituvchining ta'lim jarayonida o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish, rivojlantirish, orttirish va mustahkamlash, shuningdek faoliyatlarini ijodiy va mahsuldor qilish bo‘yicha mahorati o‘z fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni boy, rang-barang, qiziqarli qilib o‘tkazishiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari - Buxoro. Matbaa, 2001 yil.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T:, 2010-yil